



## HANS KRISTIAN ANDERSENNING BULBUL ERTAGINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI FARQLAR

---

*Farg‘ona davlat universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi  
Ro‘ziyeva Nilufarxon Adhamjon qizi  
Ingliz tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi  
Gafurova Nozimaxon*

**Anatatsiya:** Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi Bulbul ertagining o‘rtasidagi farqlarni o‘rganadi. O‘zining go‘zal va ohangdor qo‘shig‘i bilan mashhur bo‘lgan kichik qanotli kuychi – bulbul o‘zbek va ingliz adabiyoti va folklorida madaniy ahamiyatga ega. Bu tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi Bulbul tasvirlarini timsolizm, mifologiya va she‘riy obrazlardagi farqlarni hisobga olgan holda taqqoslash va solishtirishga qaratilgan. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz o‘zbek va ingliz madaniyatlarida bulbul qanday idrok etilishi va tasvirlanishi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lamiz, tabiat va yovvoyi tabiat haqidagi inson talqinlarining boy rang-barangligini ko‘rsatamiz.

**Kalit so‘zlar:** Hans Kristian Andersen, Bulbul, Xitoy imperatori, ertak, ibora va o‘xshatishlar.

**Kirish:** Har bir tarjimon chet tilidagi asarni o‘z ona tilisiga tarjima qilgan ekan, o‘z ona tilisiga, millatiga mos bo‘lgan urf- odat va madaniyatlarini qo‘shib yuboradi. Hozir ko‘rib chiqiladigan asar ham huddi shunday. Bu ertak barcha o‘quvchilar, bolajonlar sevib o‘qiladigan “ Bulbul” ertagi. Bu ertakni o‘qimagan bola bo‘lmasa kerak, hech bo‘lmaganda bu ertakni buvijon va bobojonlarimizdan bir marta bo‘lsa ham eshitganmiz. Bu maqola Bulbul ertagini tarjima qilishdagi farqlarni ko‘rib chiqadi.

G‘arb adabiyotidagi ertakchi adiblar ichida daniyalik buyuk ertaknavis Hans Kristian Andersen alohida o‘rin tutadi. Uning dayerli barcha ertak va hikoyalari kitobxonlarning qalbidan joy olgan. Uning asarlarini yosh-u qari birdek sevib o‘qiydi. Andersen ertaklari shunchaki xayoliy voqealar tasviri emas, aksincha jonli hayot voqealarga asoslangan real hikoyalardir. Hans Kristian Andersen ijodidagi “ Bulbul “ ertagi ham buyuk ertakchi yaratgan go‘zal asarlardan biridir. Bu ertakni go‘zallik va ezgulikni ulug‘lovchi, soxta va qabihlikni qoralovchi, bu illatlarning



inqirozi muqarrarligi haqidagi asar. Bulbul asari insonni qalbakilikdan, Ikkiyuzlamachilikdan, yolg'onchilikdan qaytaradi. Inson qalbini tushunib yashashga, har bir narsadan go'zallik topa olishga undaydi. Bu asarni Usmon Qo'chqor mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjima jarayonida tarjimon o'zbek xalqiga mos bo'lgan madniyatni va o'zoning hikoyalari bo'lgan emotsiyasini qo'shib ketadi. Inglizcha va o'zbekcha variantlarini ko'rib chiqsak u yerda bazi bir farqlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun :

**“The Emperor of China is a Chinaman, as you most likely know, and everyone around him is a Chinaman too.”** deyilgan bo'lsa, tarjimon tarjima qilish jarayonida bazi bir o'zgartirishlar kiritagan:

**“Chin-mochin degan mamlakatning imperatori ham fuqarolari ham xitoylardan.”** – deya tarjima qilinadi. Tarjimon tarjima qilib turgan hikoyasini yanada bo'yoqdorroq ya'ni o'qib turgan kitobxonni o'ziga jalb qilish maqsadida Chin-mochin so'zini qo'shib ketgan. Lekin aslida bu yurtning nomi berilmagan edi. Ingliz tilida bulbulning sayrashini oddiygina “song” deyilgan bo'lsa, o'zbek tilida “bulbulning sayrashi, bulbulning nolasi “deb tarjima qilinadi. Bundan o'zbek tili naqadar ko'p so'z boyligi ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilida bulbul deyilgan bo'lsa tarjimada “qanotli kuychi “deb tarif beradi. O'zbek tilida qushlar bizning qanotli do'stlarmiz degan ibora bor, tarjimon shunga asoslanib bulbulga nisbatan qanotli kuychi deya tarif beradi.

**“ His song was so ravishing that even the poor fisherman, who had much else to do, stopped to listen on the nights when he went out to cast his nets, and heard the nightingale. “How beautiful that is,” he said, but he had his work to attend to, and he would forget the bird’s song. But the next night, when he heard the song he would again say, “How beautiful.”** Deyilgan bo'lsa, o'zbek tilida esa,

**Bulbul shu qadar go'zal kuylar ekanki, uning qo'shig'ini tinglab o'tirgan kambag'al baliqchi o'zining qayg'u- g'amlarini ham, suvga solgan to'rini ham unitib yuborar ekan. U kutilmaganda: ” Yo parvardigor, - hayot naqadar yaxshi “ – deb yuborar ekan.”** Bu yerda tarjimon “How beautiful that is “ degan jumlasini “ yo parvardigor, hayot naqadar yaxshi” deb tarjima qiladi lekin aslida parvardigor va hayot so'zlari berilmagan, oddiygina “bu qanday chiroyli”- deyilgan. Tarjimon ham shunday tarjima qilsa bo'lar edi lekin u tarjimada o'z emotsiyasini qo'shib hikoyani o'quvchiga qiziqarliroq qiladi.

**“ I am at last they found a poor little kitchen girl, who said: “The nightingale? I know him well “.** Bu yerda qizaloqqa nisbatan “ poor little girl “ deyilgan bo'lsa. O'zbek tilida **“ Oshxonada ishlaydigan bir qizaloqdan qushning**



**daragini eshitib qolishibdi** “- deyiladi. Qizaloqqa nisbatan poor ya’ni kambag’al, faqir degan tarifni bermaydi. Nega bu yerda tarjimon poor ya’ni kambag’al so’zini ishlatmagan? Balkim tarjimon qizaloqqa nisbatan kambag’al so’zini ishlatgisi kelmagan chunki xonning oshxonasida ishlaydigan qizaloq kambag’al bo’lishi mumkin emas deb o’ylagandir, bunisini tarjimonning o’zi biladi. Yana bir farqli tomoniga nazar soladigan bo’lsak;

**Round its neck hung a piece of ribbon, on which was written “ The Emperor of China’s nightingale is poor compared with that of the Emperor of Japan’s.**

**Qushning bo’yniga bog’langan lentada “ Xitoy imperatorining bulbuli oldida Yaponiya imperatorining bulbuli ip esholmaydi” degan yozuv bor edi.** Bu yerda o’zbek xalqi naqadar iboralarga boy til ekanligini bilishimiz mumkin. Tarjimon bulbulga nisbatan ip eshilmaydi ya’ni haqiqiy bulbulday zo’r kuylay olmaydi degan ma’noda shu iborani ishlatgan, aslida ingliz tilidagi variantida ip esholmaydi degan ibora berilmagan.

**Xulosa qilib aytganda,** har bir asarni tarjima qilish jarayonida bazi bir o’zgartirishlar kiritiladi, bu o’sha millatning urf- odatlari, madaniyatiga bog’liqdir. Hozir ko’rib chiqilgan “Bulbul” ertagida ham huddi shunday o’zgartirishlar bor. Bu o’zgartirishlar asarning yanada sevib qayta- qayta o’qilishi uchun hizmat qilmoqda deb o’ylayman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Hans Kristian Andersen “ Nightingale “ story.
2. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
- 3.Gafurova, N. (2020). Хозирги замон тилшунослигида “Термин” ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62
4. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *Sign*, 1, 22.
- 5.Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o’zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
- 6.Xoshimova, N. (2019). External factors of associations’ individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 134-136.
- 7.5-sinf 1-qism adabiyot kitobi.